

TALABALARNING YOZUV KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISHDA AQLIY  
XARITA VA STRUKTURAVIY QOLIP GRAFIK TASHKILOTCHILARINING  
INTEGRATSIYA: JARAYONLI-JANR  
YONDASHUVI ASOSIDA

Guliston davlat universiteti tayanch doktoranti  
Ortiqova Tursunoy Jumanazar qizi  
E-pochta manzili: [ortiqovaturunoy66@gmail.com](mailto:ortiqovaturunoy66@gmail.com)

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.21205425>

**Annotatsiya:** Mazkur tadqiqot ishida jarayonli-janr yondashuvi *asosida aqliy xarita* grafik tashkilotchisi (*mind map*) hamda insho matni *tashkiliy qoliplari (structural essay frameworks)* asosida yaratilgan grafik tashkilotchilar integratsiyalashuvining yozma nutq kompetensiyasini rivojlantirishda imkoniyatlari tadqiq etiladi. Mazkur maqolada matn yaratishning *yozuvoldi (pre-writing)* bosqichida o’quvchi ongidagi g’oyalarni tashqi generatsiyasi va ularni mantiqan izchil shakldagi matnga aylantirish bosqichida mazkur vositalarning kognitiv yuklamani kamaytirish hamda yozma matnning *kogerentlik (coherence)* va *kogeziya (cohesion)* kabi tashkiliy mezonini ta’minlashdagi lingvodidaktik ahamiyati nazariy jihatdan asoslangan.

**Kalit so’zlar:** *jarayonli-janr yondashuvi, aql xaritasi, strukturaviy qoliplar, g’oya generatsiyasi, tashkillashtirish, yozuvoldi bosqichi, kognitiv yuklama, janr*

**Kirish**

Zamonaviy til o’qitish metodikasida yozuvni o’rgatishning eng samarali yo’nalishlaridan biri bu *jarayonli-janr yondashuvi (Process-genre approach)* hisoblanadi. Mazkur yondashuv yozuvni o’qitishdagi mavjud yondashuvlarning kamchiliklarini to’ldiruvchi yo’nalish zaminida paydo bo’ldi. Ushbu yondashuv yozuvni shunchaki yakuniy *maxsulot (product)* deb baholamasdan, uni *fikrlarni shakllantrish (idea generation)*, *tashkillashtirish (idea organization)* kabi *kognitiv jarayonlar* tuzilmasi (*process*) hamda muayyan ijtimoiy kontekst talablaridagi *janr qoliplari (genre: essay, letter, blog post)* yig’indisi sifatida o’rganadi.

Xorijiy til o’rganuvchilari turli janrlarda matn yaratishda asosiy ikki turdagi qiyinchiliklarga duch keladilar: birinchi qiyinchilik – yozuvoldi bosqichdagi g’oyalar paydo bo’lishining xaotik tabiati kognitiv yuklamani oshirishi; ikkinchisi – CEFR B2-C1 darajalari talab etadigan janr konvensiyalarini lingvistik jihatdan shakllantirishdagi qiyinchiliklar. Mazkur metodologik ziddiyatni muvozanatlash maqsadida jarayonli-janr yondashuvini vizuallashtiruvchi va bir-birini to’ldiruvchi vizualizatsiya texnikalaridan biri bo’lgan ikki turdagi grafik tashkilotchilar kombinatsiyasi asosidagi ikki bosqichli modelni taklif etamiz: aqliy xarita (jarayon bosqichi uchun), strukturaviy matn qolipi (jarayon va janr yo’nalishlari uchun)

Jarayonli-janr yondashuvining birinchi fundamental ustuni – bu yozuvning g’oyalar generatsiyasi va ularni tashkil etish bosqichi bo’lib, bu jarayonni samarali va vizual ko’rinishda amalga oshirishda aqliy xarita grafik tashkilotchisining ahamamiyati kattadir. Tony Buzan ta’biri bilan aytganda, aqliy xaritalar g’oyalar va konseptlar o’rtasidagi o’zaro bog’liqliklarni aks ettiradi, ya’ni aqliy xaritada g’oyalar ma’lum kategoriyaga ko’ra bir-biriga yaqin assotsiatsiyalashgan holda vizual ko’rinishda namoyon bo’ladi.

John Richards Hayes nazariyasiga ko’ra yozuv jarayoni uzoq muddatli xotira va kognitiv jarayonlarning o’zaro ta’siri asosida yuzaga keladigan murakkab kognitiv jarayondir. Mazkur faoliyatlar o’rtasidagi ta’sirli aloqaga quyidagicha tafsif keltirishimiz mumkin: g’oyalarni ishlab chiqishi uchun ishchi xotira (working memory) uzoq muddatli xotiraga (long-term memory) murojaat qiladi va bir vaqtning IXdan (ishchi xotira) UMX (uzoq muddatli xotira) dan olgan ma’lumotlarni vaqtinchalik eslab turish funksiyasi ham talab etiladi, bundan tashqari g’oyalarni ma’noviy guruhlariga bo’lish ya’ni ularni tartiblash uchun *tormozlovchi ijro funksiyasi (inhibition control)* faoliyatiga ham zarurat seziladi.

Ko’rinib turibdiki bunday murakkab kognitiv jarayon oqibatida kognitiv yuklamaning ortishi yuzaga keladi. Aqliy xaritalar vositasida g’oyalarni tashqariga chiqarish esa ishchi xotiraning vaqtincha eslab turish mexanizmini, tormozlovchi ijro funksiyasining esa g’oyalarni tartiblashdagi kognitiv yuklamasini yengillashishiga olib kelishi mumkin.

Aqliy xaritaning g’oyalarni yaratish va tartiblashdagi funksiyasi linvistik darajada bo’lajak matnning leksik-tematik poydevorini quradi: markaziy tushunchadan tarqalgan tarmoqlar matndagi sinonimik qatorlar va tematik guruhlarini vizual ierarxiyaga keltirib beradi.

Jarayonli-janr yondashuvning ikkinchi ustuni – talaba yaratgan xomashyoni ma’lum bir janr talabalariga muvofiqlashdir. Bu jarayonda matn strukturasi asosida yaratilgan qoliplar janr konvensiyalarini va CEFR baholash mezonlarini vizual nazorat qiluvchi tashqi kognitiv tayanch sifatida maydonga chiqadi.

Yozuv o’qitish metodikasi sohasining fundamental asoschilari Alice Oshima va Ann Hoguelarning nazariyasiga tayangan holda, zamonaviy tadqiqotlarda muayyan janrdagi (*masalan, opinion essay*) matnlarning tarkibiy tuzilmasini aks ettiradigan maxsus GTlar ishlab chiqilmoqda. Xususan, Livianni Lmambe va b.lar ushbu nazariya negizida o’z tadqiqotlarida *munosabat esse matnlari (opinion essay)* strukturalariga xoslangan bosqichli (sequencial) GTlar yozuvning qoralama bosqichida ishlatilganligi aytilgan. Ilmiy ish natijalariga ko’ra, tadqiqotchi tomonidan tuzilgan GTlar yordamida o’quvchilar yozuv matnlarining tashkiliy mezonida ijobiy ko’rsatkichlar kuzatilgan bo’lib, bu insho matnni va paragraflardagi kogeziya, kogerentlik darajasining o’sganligi hamda mantiqiy bog’lovchi vositalar sonining ortishi bilan namoyon bo’lgan. Shuningdek, yaqin yillarda Samya AL-Shidi aql xaritasi GTsiga “gamburger” (Hamburger) paragraf qolipi shaklidagi GTning integrativ qo’llanishi talabalarga struktura jihatdan to’g’ri paragraflar yozish ko’nikmasini oshishiga olib kelishini ta’kidlagan.

### **Xulosa**

Xulosa o’rnida aytish joizki, jarayonli-janriy yondashuv asosida qurilgan aql xaritasi va strukturaviy qoliplarning integrative modeli til o’rganuvchilarining yozuv kompetensiyasini shakllantrishning mukammal kognitiv va lingvodidaktik mexanizmi bo’lib xizmat qilishi mumkin. Ushbu yondashuvda aqliy xarita faoliyati yozuvoldi bosqichidagi fikrlar yaratish va tashkil etish jarayonlarining ustunini ta’minlab, talabani g’oyalar bo’roni (brainstorming) vaqtidagi leksik-struktura zo’riqishidan xalos etsa, tizimli paragraf va matn qoliplari qoralama yozish (drafting) bosqichida o’sha vizual xomashyoni gap va paragraf darajasida izchil yozma matnga aylanishini qo’llab-quvvatlaydi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. **Al-Shidi, Samia.** Exploring the Effectiveness of Hamburger and Mind Mapping Graphic Organizers in English Language Instruction at Gulf College / Samia Al-Shidi //



European Journal of Foreign Language Teaching. – 2024. – Vol. 12, № 4. – Pp. 15–28. – DOI: 10.46827/ejfl.v8i2.5512.

2. **Buzan, T.** The Mind Map Book / T. Buzan. – London : BBC Books, 1993. – 320 p.

3. **Badger, Richard.** A process genre approach to teaching writing / Richard Badger, Goodith White // ELT Journal. – 2000. – Vol. 54, № 2. – Pp. 153–160. – DOI: 10.1093/elt/54.2.153.

4. **Hayes, John.** A new framework for understanding cognition and affect in writing / John Hayes // Perspectives on Writing : Research Theory and Practice / ed. by R. Indrisano, J. R. Squire. – Newark : International Reading Association, 2000. – Pp. 6–44.

5. **Lambe, Livianni.** The Effects of the Application of Graphic Organizers on EFL Students' Ability to Write Opinion Essays and Self-Efficacy / Livianni Lambe, Nyoman Degeng, Bambang Cahyono, Henry Praherdiono // Journal of Language Teaching and Research. – 2023. – Vol. 14, № 6. – Pp. 1502–1514. – DOI: 10.17507/jltr.1406.08.